

VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA
OLISH YOKI O'TKAZISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV
QILISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Saidov Xurshid Axtam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
yo'nalishi magistratura tinglovchisi

E-mail: saidovxurshid527@gmail.com Tel: (99)-700-15-51.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11670618>

Annotatsiya. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o'tkazish O'zbekiston Respublikasining valyuta yakka hukmronligiga va pul-moliya tizimiga putur yetkazishini inobatga olib, mazkur maqolada valyuta qimmatliklari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonlarida vujudga keladigan muammolarga yechimlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, berilgan takliflar natijasida soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga erishish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish, jinoyatlar tasnifi, ehtiyot chorasi.

CURRENCY VALUES IN AN UNLAWFUL BEHAVIOR CERTAIN PROBLEMS IN
THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO RECEIPT OR TRANSFER

Abstract. Illegal acquisition and transfer of foreign exchange values is subject to the currency monopoly of the Republic of Uzbekistan and taking into account that it harms the monetary and financial system, this article analyzes the solutions to the problems that arise in the process of investigating crimes related to currency values and the measures being implemented. Also, as a result of the given proposals, it will be possible to achieve changes that can have a positive impact on the development of the industry.

Key words: Investigation of crimes related to illegal acquisition and transfer of currency values, classification of crimes, precautionary measure.

ВАЛЮТНЫЕ ЦЕННОСТИ В НЕЗАКОННОМ ПОВЕДЕНИИ НЕКОТОРЫЕ
ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С
ПОЛУЧЕНИЕМ ИЛИ ПЕРЕДАЧЕЙ

Аннотация. Незаконное приобретение и перемещение валютных ценностей подпадает под действие валютной монополии Республики Узбекистан и учитывая, что это наносит вред денежно-финансовой системе, в данной статье анализируются пути решения проблем, возникающих в процессе расследования преступлений, связанных с валютными ценностями, и реализуемые меры. Также в результате данных предложений удастся добиться изменений, способных оказать положительное влияние на развитие отрасли.

Ключевые слова: Расследование преступлений, связанных с незаконным приобретением и перемещением валютных ценностей, классификация преступлений, мера пресечения.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 177-modda. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish

Fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini olishi yoki o'tkazishi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — besh yildan etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasida jinoyatlarni tasnifi belgilangan unga ko'ra:

Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan; uncha og'ir bo'lmagan; og'ir; o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 15-moddasiga asosan, jinoyat kodeksining 177-moddasi 1-2-qismlari ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, 177-moddasi 3-qismi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, 177-moddasi 4-qismi og'ir jinoyatlar toifasiga kiradi.

Ayrim hollarda, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilganda tadbirda foydalanish uchun O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti va uning hududiy boshqarmalari maxsus jamg'armasidan olingan pullar valyuta ayirboshlash faoliyati bilan shug'illanuvchi shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida yo'qotilishi hamda tergov jarayonlarida aybdor shaxs tomonidan mazkur pullarni qaytarmaslik holatlari uchrab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 aprel "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi 8-son Qarorida "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish orqali orttirilgan pul va boshqa qimmatliklar davlat daromadlari hisobiga o'tkaziladi. Agar jinoiy yo'l bilan orttirilgan pul yoki boshqa qimmatliklar topilmasa, olingan summa yoxud qimmatliklarning qiymati davlat foydasiga undiriladi" deb belgilangan.

Biroq, ayblanuvchiga Jinoyat kodeksining 177-moddasi birinchi yoki ikkinchi qismlari bilan ayblangan va ehtiyot chorasi tanlayotgan vaqtda ayblanuvchi tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lmaganda ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan zarar bartaraf etilmagan bo'lsada unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llashning imkoniyati mavjud emas.

Bu esa o'z navbatida ayblanuvchi shaxs davlat tomonidan o'rnatilgan tartiblarni mensimasligini, qilmishiga amalda pushaymon emasligini, yetkazilgan zararni bartaraf etishni xoxlamasligini anglatib, davlat tomonidan o'rnatilgan tartiblarni buzgan bo'lishiga qaramasdan ayblanuvchining ochiqda yurishiga, Departamentning maxsus jamg'armasidan olingan pullarni o'z vaqtida maxsus jamg'armaga qaytarilmasligiga, maxsus jamg'arma pullari qaytarilmaganligi sababli kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan tezkor-qidiruv tadbirlariga maxsus jamg'armada pul yetishmasligiga hamda Departamentning kelgusidagi faoliyatiga salbiy tasir ko'rsatishiga olib keladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ehtiyot choralari ichiga nisbatan og'irroq va ta'sirli hisoblangan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash lozim eb hisoblab, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasi 2-qismi 1-kichik bandidan oldin "ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan moddiy zarar o'rni qoplanmagan taqdirda" so'zlari qo'shib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilishi lozim:

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llaniladi.

Alohida hollarda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda:

ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan moddiy zarar o'rni qoplanmagan taqdirda;

ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;
ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;
ilgari qo‘llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;
ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmaganida;
jinoiyat ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash davrida sodir etilganida, qo‘llanilishi mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 22-oktabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-son Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 apreldagi “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 8-son Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi